

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TO'SQINLIK QILISH, QONUNGA XILOF RAVISHDA ARALASHISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING OB'EKTIV BELGILARI TAHLILI

Ubaydullayev Shoxruxbek Ortig'ali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi
kurashish va kompleks nazorat yo'nalishi magistri

shohruxbeku179@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10427024>

Annotatsiya: Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlarning ob'ektiv belgilari yoritilib, jinoyatning turdosh ob'ektlari tadbirkorlik faoliyati hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid ijtimoiy munosabatlar tahlil etilgan

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik faoliyatiga oid qonunchilik, to'sqinlik qilish, jinoyatlarning umumiy ob'ekti, jinoiy qilmishlarning jinoyat-huquqiy tavsifi.

Jinoyatni yuridik tahlil qilish aybli, ijtimoiy xavfli hamda jinoiy jazoga sazovor g'ayrihuquqiy qilmishga nisbatan sudning jazo qo'llash tahdidi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashni, jinoyat tarkibi – jinoyatning ob'ektiv va sub'ektiv belgilarini tahlil qilishni anglatadi. Jinoyatning ob'ekti esa – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat bo'lib, jinoiy qilmish tufayli ana shu ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinadi va unga zarar yetkaziladi¹. Bu har qanday ijtimoiy turdagi munosabat emas, balki faqatgina jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabat ekanligini anglatadi.

JKda "to'sqinlik qilish" shaklida ifodalangan ijtimoiy xavfli qilmishlar 10 ta jinoyat tarkibida mavjud. Shulardan 8 ta jinoyat tarkibida "to'sqinlik qilish" ob'ektiv tomon belgisi sifatida ifodalangan bo'lsa, 2 ta jinoyat tarkibi (155-m., 2-qism, 236-m.) da "to'sqinlik qilish" jinoiy maqsad shaklida aks etgan. Mazkur normalar tabiatidan kelib chiqib, biz, tadqiq etilayotgan jinoyatlarning sodir etilish usuli va ob'ektiv tomon belgilariga ko'ra ularni shartli ravishda:

– tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar – JKning 192¹, 192⁴, 192⁵, 192⁶-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar;

– tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar – JKning 192², 192³, 192⁸-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar sifatida ajratib oldik.

¹ Usmonaliev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik – Toshkent: Nasaf, 2010. – B. 132.

Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning umumiy ob'ekti, qoida tariqasida, iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ma'lumki, jinoyat qonuni Maxsus qismi moddalarini tegishli bo'lim, bobda joylashganligi bo'yicha ularning umumiy va turdosh ob'ektlarini ajratish qabul qilingan.

Tadqiq etilayotgan jinoyatlarning maxsus ob'ektini ham O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu jinoyatning turdosh ob'ekti esa, tadbirkorlik faoliyati hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Mazkur normalarning dispozitsiyasi blanket xususiyat kasb etganligi sababli jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonini tahlil etishda tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonun hujjatlariga murojaat qilishni taqozo qiladi.

So'z yuritilayotgan jinoyatlarning ob'ektini M.Rustamboyev mulkdorlar huquqlarining kafolatlari sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iboratligini tushuntiradi².

Tadqiq etilayotgan qilmishlar ob'ektiv tomon belgilari mansabdor shaxs yoki xizmatchining hokimiyat yoki mansab vakolati yoxud vazifalari doirasidan chetga chiqishiga o'xshash hisoblanadi. Lekin, tadbirkorlik faoliyati – jinoyat ob'ekti sifatida davlat jinoyat-huquqiy siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etganligi, mazkur qilmishlarni kriminalizatsiya qilishdan maqsad jinoiy tajovuz aynan tadbirkorlik faoliyatiga qaratilganligi sababli ham shu tarzda aniqlashtirilgan.

R.Kabulov JKning XIII¹ bobida keltirilgan tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar huquq va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlarning moddiy va formal tarkibli ekanligi, jinoyat predmetiga egaligi, harakat yoki harakatsizlikda sodir etilishi kabi jihatlariga ko'ra ham farqlaydi³.

Tahlil etilayotgan normalar ob'ektiv tomoni xususiyati shundaki, JK 192¹, 192², 192³, 192⁴, 192⁵, 192⁶, 192⁸-m.lar dispozitsiyasida ma'muriy preyuditsiya mavjud bo'lib, u ob'ektiv tomon zaruriy belgisi hisoblanadi.

² Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарх. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр. 2016 й. 1 ноябрь. бўл. ўзг. ва қўш. б.. Махсус қисм. – Т.: Адолат, 2016. Б.452.

³ Кабулов Р. Социальная обусловленность установления ответственности за преступления, предусмотренные гл. XIII¹ Особенной части УК и их общая юридическая характеристика. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодексини такомиллаштириш масалалари мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. –Т.: ТДЮУ, 2017. Б.13.

Mazkur jinoyat tarkiblarining ob'ektiv belgilari xususida M.Rustambayev, oldinroq qayd etilganidek JK 192¹-m.da nazarda tutilgan jinoyatning bevosita ob'ekti mulkdorlar huquqlarining kafolatlari sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat ekanligini tushuntiradi⁴. R.Kabulov, A.Otajonov va boshqalar xususiy mulk huquqini buzishning asosiy bevosita ob'ekti jismoniy yoki nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlari deb hisoblashadi⁵. Boshqa mutaxassislar esa JK 192¹-m.da nazarda tutilgan jinoyatning ob'ektini fuqarolarning xususiy mulki daxlsizligi va uni himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar, jinoyat predmetini esa turli xildagi mol-mulk tashkil qiladi⁶, deb hisoblashadi.

Umuman olganda ushbu olimlarning xususiy mulk huquqini buzish jinoyatining ob'ekti masalasidagi qarashlari o'zaro keskin farq qilmaydi. Biz ham mazkur fikrlarni e'tirof etgan holda xususiy mulk huquqini buzish jinoyatining ob'ekti shaxsning mulk huquqini amalga oshirish erkinligi sifatida tushunamiz. Bizning fikrimiz shundaki, ushbu jinoyat faqat mulk egasi yoki mulkiy huquqni amalga oshirish sub'ekti sifatida tadbirkorlik sub'ektlarinigina emas, balki har qanday mulkdorning mulkiy va ashyoviy huquqlarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan, xususiy mulk huquqini buzish jinoyatining ob'ekti sifatida jismoniy yoki nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar deyish mumkin.

Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi bo'lib, bunday mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi⁷.

“O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi qonunning 7-moddasida ham xususiy mulkning xarakteri va huquqiy tabiati mustahkamlangan. Unga ko'ra xususiy mulk fuqarolarning yollanib ishlashdan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan daromadlari hamda kredit muassasalariga qo'ygan mablag'laridan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlardan, meros bo'yicha va amaldagi qonun hujjatlarida man etilmagan o'zga asoslarga muvofiq mol-mulkka ega bo'lishlari

⁴ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.:O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. B. 243.

⁵ Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи наشري/Р.Кабулов, А.Отажонов ва бошқ.; Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. – Т.: Ўзб. Респ. ИИВ Акад., 2016. Б.540.

⁶ Махкамов О. ва бошқ. Хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига қарши жиноятлар. Илмий-амалий рисола. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор Р.А.Зуфаров. – Т.: ТДЮУ, 2016. Б.8.

⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий мулкни химоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 39-сон, 446-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда.

hisobiga hosil qilinadi⁸. Shu kabi xususiy mulk huquqi ob'ektlari tahlil etilayotgan jinoyatning predmetini tashkil qiladi.

Xususiy mulk huquqini buzish jinoyati ob'ektiv tomondan talon-toroj alomatlar mavjud bo'lmagan holatlarda mulkdorlarning huquqlarini buzish yo'li bilan ularga zarar yetkazib, quyidagi usullarda sodir etilishi mumkin:

- noqonuniy yo'l bilan mulk huquqini cheklash, undan mahrum qilish;
- xususiy mulkka tajovuz qilish;
- nomaqbulligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdor qabul qilishiga majburlash;
- asossiz ravishda mol-mulkni, shuningdek mulkiy huquqni topshirishni talab qilish;
- mulkdorni o'z mulkiga bo'lgan huquqidan voz kechishga majburlash yoki uning mulkini olib qo'yish.

Ob'ektiv tomon belgilari ifodalanishiga ko'ra mazkur normaning birinchi qismidagi jinoyat formal tarkibli jinoyat hisoblanadi. Chunki bunda qilmishni sodir etish natijasida ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishi talab qilinmaydi.

Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda mulk huquqini cheklash yoki undan mahrum etish xususiy mulk huquqini buzish jinoyatining ob'ektiv tomonini tashkil etmaydi. Jumladan, sud qarori bilan olib qo'yilgan, tugatilgan, hisobdan chiqarilgan, natsionalizatsiya yoki rekvizitsiya qilingan⁹, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli bo'lgan¹⁰, shuningdek jinoyat vositasi va qurollari¹¹, ashyoviy dalillar¹² bo'lgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini cheklash yoki undan mahrum etishda xususiy mulk huquqini buzish jinoyati tarkibi mavjud bo'lmaydi. Qonun chiqaruvchi ob'ektiv tomonning so'z yuritilayotgan ushbu belgisi bilan yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari qonunga xilof ravishda mulk huquqini cheklash yoki undan mahrum etishda ifodalanadigan qilmishni nazarda tutadi. M.Rustamboev aynan shu qilmish xususiy mulkka tajovuz qilishning aynan o'zi ekanligini ta'kidlaydi¹³.

⁸ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида mulkchilik tўғрисида”ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 978-модда.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.01.2020 й., 03/20/603/0071-сон.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2020 й., 03/20/613/0362-сон. (27-модда)

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2020 й., 03/20/613/0362-сон, 15.05.2020 й., 03/20/617/0585-сон. (211, 289-моддалар)

¹² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 15 июлдаги 200-сон қарори билан тасдиқланган “Давлат даромадига ўтказиладиган мол-мулкни олиб қўйиш, сотиш ёки йўқ қилиб ташлаш тартиби тўғрисида”ги Низом. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.01.2019 й., 09/19/29/2475-сон, 30.04.2019 й., 09/19/367/3037-сон; 28.09.2019 й., 09/19/819/3819-сон, 29.12.2019 й., 09/19/1046/4242-сон.

¹³ Rustamboev M.X. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳ. (Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр. 2016 й. 1 ноябрь. бўл. ўзг. вақўш. б.). Махсус қисм. – Тошкент.: “Адолат”, 2016. Б. 454.

Shuningdek, xususiy mulk huquqini buzish jinoyatini nomaqbulligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdor qabul qilishiga majburlash usuli bilan sodir etishda xususiy mulk egasiga uning manfaatiga zid, foyda keltirmaydigan yoki kutilayotgan foydadan kamroq naf keltiradigan yoxud mulkdorga zarar keltiradigan shartlarni uning erkiga xilof ravishda ruhiy tazyiq o'tkazishni tushunish lozim¹⁴. Shu nuqtai nazardan qaralganda mazkur jinoyatda yetkazilgan zararni aniqlashda to'g'ridan-to'g'ri moddiy zarar bilan bir qatorda, boy berilgan foyda ham hisobga olinishi lozimligi haqida fikrga qo'shilish mumkin¹⁵. Bundan tashqari maqbul bo'lmasligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdor qabul qilishiga majburlash mulkdorga shartnoma tuzish erkinligini buzgan holda oldi-sotdi, hadya yoki ijara kabi shartnomalar tuzishga majburlashda ham ifodalanadi. Bunday usul va shaklda mulkdor shartnoma tuzishga majburlangan paytda xususiy mulk huquqini buzish jinoyati tamom bo'ladi. O'z navbatida, fuqarolik qonunchiligiga muvofiq maqbul bo'lmasligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdor qabul qilishiga majburlash, qo'rqitish, zo'rlik ishlatish, taraflarning biri uchun noqulay shartlar bilan tuzilgan hamda boshqa taraf bundan manfaatdor bo'lgan bitim asoratli bitim sifatida e'tirof etiladi va u haqiqiy emas, deb topiladi.

Mol-mulkni va mulkiy huquqni asossiz ravishda topshirishni talab qilish, mulkni olib qo'yish, mol-mulkka bo'lgan huquqdan voz kechishga majburlash deganda, qonunga xilof xususiy mulk egasidan unga tegishli bo'lgan bo'lgan mulk yoki mulkiy huquqlardan voz kechishni talab etish tushuniladi¹⁶. Biroq, bu talon-torojning belgilarisiz amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib JKning 192¹-m.da nazarda tutilgan jinoyatni ob'ektiga ko'ra XIII¹ bobda emas, balki konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan VII bobda joylashtirilishi mantiqan to'g'ri, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: Nasaf, 2010. – B. 132
2. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 39-son, 446-modda;

¹⁴ Махкамов О. ва бошқ. Хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига қарши жиноятлар. Илмий-амалий рисола. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Р.А.Зуфаров. – Т.: ТДЮУ, 2016. Б.9.

¹⁵ Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри/Р.Қабуллов, А.Отажонов ва бошқ.; Масъул муҳаррир Ш.Г.Икрамов. – Т.: Ўзб.Респ. ИИВ Акад., 2016. Б.542.

¹⁶ Махкамов О. ва бошқ. Хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига қарши жиноятлар. Илмий-амалий рисола. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Р.А.Зуфаров. – Т.: ТДЮУ, 2016. Б.9.

3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 978-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
5. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2020 y., 03/20/613/0362-son. (27-modda)
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2020 y., 03/20/613/0362-son, 15.05.2020 y., 03/20/617/0585-son. (211, 289-moddalar)
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 15 iyuldagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida"gi Nizom. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2019 y., 09/19/29/2475-son, 30.04.2019 y., 09/19/367/3037-son; 28.09.2019 y., 09/19/819/3819-son, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son.
8. Rustamboev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. (Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016 y. 1 noyabr. bo'l. o'zg. va qo'sh. b.). Maxsus qism. –Toshkent.: "Adolat", 2016. B. 454.
9. Maxkamov O. va boshq. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga qarshi jinoyatlar. Ilmiy-amaliy risola. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. R.A.Zufarov. – T.: TDYuU, 2016. B.9.
10. Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri/R.Kabulov, A.Otajonov va boshq.; Mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O'zb. Resp. IIV Akad., 2016. B.542.

